


## 2022- yilning yanvar-sentabrida Xorazm viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-sentabrida Xorazm viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 22 646,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 4,7 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yilning yanvar-sentabrdagi narxlarga nisbatan 115,8 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Xorazm viloyatining qo'shgan hissasi 3,6 % ga yetdi.




**2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

	<i>Mrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	
<b>I. YAHM, jami</b>	18 676,2	22 646,1	104,7
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	18 110,8	21 925,3	104,6
mahsulotlarga sof soliqlar	565,4	720,8	108,4
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>18 110,8</b>	<b>21 925,3</b>	<b>104,6</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>8 273,5</b>	<b>9 542,0</b>	<b>101,6</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>3 458,1</b>	<b>4 785,8</b>	<b>110,3</b>
sanoat	2 095,8	3 209,7	115,9
qurilish	1 362,3	1 576,1	101,7
<b>xizmatlar</b>	<b>6 379,2</b>	<b>7 597,5</b>	<b>105,3</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	999,9	1 209,1	107,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 037,6	1 231,8	112,8
boshqa xizmat tarmoqlari	4 341,7	5 156,6	103,0

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 11 699,8 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,0 % ga yuqoridir.

**2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari**





Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,8 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,2 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 43,5 % ni, sanoat tarmog'i 14,6 % ni, qurilish 7,2 % ni va xizmatlar sohasi 34,7 % ni tashkil qildi.

## 2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (*jamiga nisbatan % da*)

	2021- yil	2022- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,0	96,8
mahsulotlarga sof soliqlar	3,0	3,2
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>45,7</b>	<b>43,5</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>19,1</b>	<b>21,8</b>
sanoat	11,6	14,6
qurilish	7,5	7,2
<b>xizmatlar</b>	<b>35,2</b>	<b>34,7</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,5	5,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,7	5,6
boshqa xizmat tarmoqlari	24,0	23,6

## 2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)




● **Yalpi qo'shilgan qiymat**

● **Mahsulotlarga sof soliqlar**

YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 101,6 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – (43,5 %), sanoatda – 115,9 % (14,6 %), qurilishda – 101,7 % (7,2 %), xizmatlar sohasida – 105,3 % ni (34,7 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 107,4 % (5,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,8 % (5,6 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,0 % (23,6 %) dan iborat bo'ldi.


## 2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)






YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,7 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 1,7 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,8 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 1,4 f.p.) va qurilish tarmog'i – 0,1 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 2,0 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 1,8 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 3,3 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 0,5 f.p.)ga ko'paydi

## 2022- yilning yanvar-sentabrida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2022- yilning yanvar-sentabrda YAHM deflyatori indeksi 2021- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 115,8 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 132,1 % va qurilish tarmog'ida – 113,8 % qayd etildi.

**2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi**  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



**2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi** (jamiga nisbatan %da)

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 71,9 %ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-sentabrda – 75,2 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

